SHARQ UYG‘ONISH DAVRIDA MUSIQA SAN’ATI VA MUSIQASHUNOSLIK ILMI

Samadov Ro‘zimurot Rizamatovich.
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX-XI asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining *hamda o‘sha davr davlatchiligining madaniy hayoti haqida fikr yuritiladi. Bu davrda yetishib chiqqan allomalar hamda ularning sohaga qo‘shgan hissalari haqida so‘z boradi. Qolaversa o‘sha davrdagi sozanda, xonanda, bastakor hamda cholg‘u sozlari haqida ham yetarlicha ma’lumitlar beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Kuy, ashula, musiqa, ritm, usul, cholg‘u, san’at, tarona.*

Abstract. *This article discusses the cultural life of the peoples of Central Asia and the statehood of that period in the 9th-11th centuries. It discusses the scholars who emerged during this period and their contributions to the field. In addition, sufficient information is provided about the musicians, singers, composers, and instrumental music of that period.*

Keywords. *Melody, song, music, rhythm, method, instrument, art, song.*

IX-XI asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ma’naviy va moddiy hayot har tomonlama yuksalishga erishdi. Bu esa musiqa san’atida ham o‘z aksini topdi. Ayniqsa Somoniy hukumdorlardan bo‘lgan Ismoil Somoniy davrida Buxoro ilm-fan, adabiyot, musiqa va tasviriy san’at markaziga aylandi. Ismoil Somoniy o‘z saroyiga davrining ko‘plab yetuk olimlari, taniqli va iste’dodli shoirlar, sozanda va xonandalarni yig‘adi hamda ularning homiysiga aylanadi.

Bu davrda Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Yusuf ibn Is’hoq al-Kindiy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Mansur ibn Zayla, Munjiqiy, Termiziy hamda Farruxiy kabi shoir va

mutafakkurlarning musiqa rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Qolaversa IX-XI asrlarda Rud, tanbur, borbat, daf, ko‘s, tabl, qo‘biz, rubob, taburak, nay, zir, dagona, shaypur, surnay, karnay, organun, qonun, chang kabi musiqa asboblaridan keng foydalanilganligining o‘zi ham musiqa madaniyatining nechog‘lik taraqqiy etganligini ko‘rsatib beradi.

Uyg‘onish davri musiqa madaniyati rivojlanishida turkiy, forsiy, tojik, hamda arab xalqi musiqa nomoyondalari o‘zaro hamkorlik qilganliklari tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Xususan shoir Manuchehriy Dog‘moniy o‘zining quyidagi baytida X-XI asrlarda musiqa sanati bilan shug‘ullangan cholg‘uchi va bastakorlarning nomlarini tilga oladi.

Az Xuroson Bushuaybu Bo‘zar on turki keshiy

V-on Saburiy porsiy v-on Lukariy changzan.

Ya’ni Xurosondan Bushuaybu va Bo‘zar, Keshlik turk va fors Saburiy hamda Lukariylar haqida gapirib o‘tilgan[1].

IX-XI asr manbalarida Rudakiy, Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, Lukariy, Abuhifa So‘g‘diy, Abutayib Tohir ibn Muhammad al-Xurosoniy hamda boshqa sozanda va hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Yozilishicha Abuhifa So‘g‘diy nayga monand “Shohrud” degan cholg‘u yaratgani, Abutayb al-Xurosoniy ,,Xusravoniy” kuyini ijod qilgani, xalq kuylari orasida esa yangi-yangi kuylar – “Rost”, “Xusravoniy”, “Boda”, “Ushshoq”, “Zirafkand”, “Bo‘saliq”, “Sipahon”, “Navo”, “Basta”, “Tarona”hamda boshqalar ijod qilinganligini ko‘rish mumkin. Bu kuylar keyinchalik “Duvozdahmaqom” va uning negizida vujudga kelgan “Shashmaqom”ning yaralishiga zamin yaratdi deya olish mumkin.

IX-XI asrda musiqaning rivojlanishi hamda musiqashunoslikning vujudga kelishida Is’hoq al-Kindiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning xizmati beqiyosdir.

[1] Натан Маллаев Ўзбек адабиёти тарихи 1-китоб. 86-бет.

Ikkinchi muallim ya’ni sharq Arastusi nomi bilan mashhur Abu Nasr Farobiy (873-950) ijrochilik bilan bir qatorda musiqashunoslikka ham katta e’tibor beradi hamda bugungi kun musiqa nazariyasining poydevori hisoblangan nodir asrlar yaaratadi. Farobiy musiqa ilmining bilimdoni sifatida musiqa nazariyaasining kategoriyalarini, musiqaning ahamiyati va boshqa ilmlar bilan aloqasini, uning turkumlanishini, ichki qonuniyatlarini, inson manaviy dunyosi uchun ahamiyati masalalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Abu Nasr Farobiy musiqa ilmiga oid yozgan asarlariga ‘‘Katta musiqa kitobi’’, ‘‘Iyqo sanog‘i kitobi’’, ‘‘Iyqolar kitobi’’, ‘‘Ilmlar sanog‘i’’ kitobining musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi, ‘‘Ilmlarning paydo bo‘lishi’’ asarining musiqaga bag‘ishlangan qismilarini aytish mumkin[2]. Farobiyning musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan kitoblari Sharqda bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo‘lib, o‘zidan keyingi davrlarda yashab ijod etgan musiqa olimlari kitoblarining yozilishida asos bo‘lib xizmat qilgan.

Farobiy yo‘lini davom ettirgan olimlardan biri - Abu Ali ibn Sino edi(980-1037). Buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib hamda shu bilan birga mohir sozanda va musiqashunos ham edi. U Farobiydan keyin Sharq musiqa ilmida yangi davr ochgan buyuk musiqashunos allomadir. Mutafakkirning serqirra ilmiy merosida musiqaga oid qarashlar muhim va salmoqli o‘rin egallaydi. Abu Ali ibn Sino yoshligidan riyoziyot (matematika) ilmlarini puxta o‘rganadi hamda musiqa ilmini ham mukammal egallaydi. Malumki musiqa ilmi matematikaning tarkibiy qismi bo‘lgan.Abu Ali ibn Sinoning ko‘plab asarlarida musiqa ilmiga oid masalalar o‘z ifodasini topgan.Xususan ‘‘Shifo kitobi”ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi ‘‘Musiqa ilmi to‘plami”, ‘‘Najot kitobi” ilmiy qomusiy asarining musiqaga bag‘ishlangan qismi ‘‘Musiqa ilmida qisqartma”, “Donishnoma” asaridagi

[2] Зокиржон Орипов X-XV асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги. 27-28 бет.

“Musiqa haqida” bo‘limini aytish mumkin. Afsuski, Ibn Sinoning bizgacha yetib kelmagan, lekin turli manbalarda zikr etib o‘tilgan asarlari ham bo‘lgan. “Musiqa sanatiga kirish”, “Qo‘shimcha kitob”, “Musiqa haqida risola” kabi musiqaga bag‘ishlangan asarlari hanuzgacha fanga ma’lum emas[3].

Ibn Sino musiqa borasidagi qarashlarining asosiy xususiyati hamda Farobiy talimotidan farqli tomoni shundaki, olim o‘z musiqa nazariyasini ko‘proq tovushlarning fizik xususiyatlariga qarata tuzishga intiladi. Bu talimotning kuchli tomoni shundaki, musiqani faqatgina tajribaning o‘ziga bog‘lab qo‘ymasdan uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga davat etadi.

Farobiy va Ibn Sino mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ulari ilmiga ham asos solishadi. Ular musiqiy asboblar tipiga batafsil tasnif berishadi hamda ularning tuzilishini tushuntirib o‘tishadi. Al-Farobiy va Ibn Sinoning musiqiy cholg‘ularni o‘rganishga doir ishlari natijasida musiqa fanidagi maxsus fan musiqiy cholg‘ushunoslik faniga asos solinadi.

Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkurlaridan yana biri Abu Yusuf ibn Is’hoq Al-Kindiy bo‘lib, arab musiqasi va musiqashunosligi asaschisi hisoblanadi. Al-Kindiy boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida ham asarlar yaratadi. U Sharq musiqa nazariyasi bo‘yicha 9 ta asar yozgan bo‘lib, musiqashunoslikda ishlash bilan bir qatorda musiqiy ohanglarni inson ruhiyatiga ta’sir etish masalalarini ham tadqiq etadi. Uning fikricha musiqa insonning ruhiy olami, fe’l-atvori va kayfiyatiga ta’sir etuvchi kuch deb hisoblaydi. Rivoyatlarning birida aytilishicha, Is’hoq Al-Kindiy musiqa orqali bemorlarga ruhiy ta’sir etishni tajribada sinab ko‘rgan. U shol bo‘lib yotgan bir bolani musiqa orqali davolaganligi bola esa sog‘ayib ketganligi aytiladi[4].

[3] Зокиржон Орипов X-XV асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги. 40-43 бет.

[4] Usmon Qoraboyev. G‘ayrat Soatov. O‘zbekiston madaniyati T. 2011-y. 86-bet.

IX-XI asrlarda Sharq har tomonlama yuksalganligiri ko‘rish mumkin. Bu davr allomalari va ularning izlanishlari butun dunyo sivilizatsiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan asarlar va betakror kashfiyotlar esa hozirgi kunda ham asosiy manba bo‘lib, kelgusi avlod uchun bitmas tuganmas meros hisoblanadi.

IX-XI asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ma’naviy va moddiy hayot har tomonlama yuksalishga erishdi. Bu esa musiqa sanatida ham o‘z aksini topdi. Ayniqsa Somoniy hukumdorlardan bo‘lgan Ismoil Somoniy davrida Buxoro ilm-fan, adabiyot, musiqa va tasviriy san’at markaziga aylandi. Ismoil Somoniy o‘z saroyiga davrining ko‘plab yetuk olimlari, taniqli va iste’dodli shoirlar, sozanda va xonandalarni yig‘adi hamda ularning homiysiga aylanadi.

Bu davrda Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Yusuf ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Mansur ibn Zayla, Munjiqiy, Termiziy hamda Farruxiy kabi shoir va mutafakkurlarning musiqa rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Qolaversa IX-XI asrlarda Rud, tanbur, borbat, daf, ko‘s, tabl, qo‘biz, rubob, taburak, nay, zir, dagona, shaypur, surnay, karnay, organun, qonun, chang kabi musiqa asboblaridan keng foydalanilganligining o‘zi ham musiqa madaniyatining nechog‘lik taraqqiy etganligini ko‘rsatib beradi.

Uyg‘onish davri musiqa madaniyati rivojlanishida turkiy, forsiy, tojik, hamda arab xalqi musiqa nomoyondalari o‘zaro hamkorlik qilganliklari tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Xususan shoir Manuchehriy Dog‘moniy o‘zining quyidagi baytida X-XI asrlarda musiqa sanati bilan shug‘ullangan cholg‘uchi va bastakorlarning nomlarini tilga oladi.

Az Xuroson Bushuaybu Bo‘zar on turki keshiy

V-on Saburiy porsiy v-on Lukariy changzan.

Ya’ni Xurosondan Bushuaybu va Bo‘zar, Keshlik turk va fors Saburiy hamda Lukariylar haqida gapirib o‘tilgan .

IX-XI asr manbalarida Rudakiy, Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir, Lukariy, Abuhifa So‘g‘diy, Abutayib Tohir ibn Muhammad al-Xurosoniy hamda boshqa sozanda va hofizlarning nomlari saqlanib qolgan. Yozilishicha Abuhifa So‘g‘diy nayga monand “Shohrud” degan cholg‘u yaratgani, Abutayb al-Xurosoniy „Xusravoniy” kuyini ijod qilgani, xalq kuylari orasida esa yangi-yangi kuylar – “Rost”, “Xusravoniy”, “Boda”, “Ushshoq”, “Zirafkand”, “Bo‘saliq”, “Sipahon”, “Navo”, “Basta”, “Tarona”hamda boshqalar ijod qilinganligini ko‘rish mumkin. Bu kuylar keyinchalik “Duvozdahmaqom” va uning negizida vujudga kelgan “Shashmaqom”ning yaralishiga zamin yaratdi deya olish mumkin.

IX-XI asrda musiqaning rivojlanishi hamda musiqashunoslikning vujudga kelishida Ishoq al-Kindiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy va Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning xizmati beqiyosdir. Ikkinchi muallim ya’ni sharq Arastusi nomi bilan mashhur Abu Nasr Farobiy (873-950) ijrochilik bilan bir qatorda musiqashunoslikka ham katta e’tibor beradi hamda bugungi kun musiqa nazariyasining poydevori hisoblangan nodir asrlar yaaratadi. Farobiy musiqa ilmining bilimdoni sifatida musiqa nazariyaasining kategoriyalarini, musiqaning ahamiyati va boshqa ilmlar bilan aloqasini, uning turkumlanishini, ichki qonuniyatlarini, inson manaviy dunyosi uchun ahamiyati masalalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Abu Nasr Farobiy musiqa ilmiga oid yozgan asarlariga ‘‘Katta musiqa kitobi’’, ‘‘Iyqo sanog‘i kitobi’’, ‘‘Iyqolar kitobi’’, ‘‘Ilmlar sanog‘i’’ kitobining musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi, ‘‘Ilmlarning paydo bo‘lishi’’ asarining musiqaga bag‘ishlangan qismilarini aytish mumkin . Farobiyning musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan kitoblari Sharqda bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo‘lib, o‘zidan keyingi davrlarda yashab ijod etgan musiqa olimlari kitoblarining yozilishida asos bo‘lib xizmat qilgan.

Farobiy yo‘lini davom ettirgan olimlardan biri - Abu Ali ibn Sino edi(980-1037). Buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib hamda shu bilan

birga mohir sozanda va musiqashunos ham edi. U Farobiydan keyin Sharq musiqa ilmida yangi davr ochgan buyuk musiqashunos allomadir. Mutafakkirning serqirra ilmiy merosida musiqaga oid qarashlar muhim va salmoqli o‘rin egallaydi. Abu Ali ibn Sino yoshligidan riyoziyot (matematika) ilmlarini puxta o‘rganadi hamda musiqa ilmini ham mukammal egallaydi. Malumki musiqa ilmi matematikaning tarkibiy qismi bo‘lgan.Abu Ali ibn Sinoning ko‘plab asarlarida musiqa ilmiga oid masalalar o‘z ifodasini topgan.Xususan ‘‘Shifo kitobi”ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi ‘‘Musiqa ilmi to‘plami”, ‘‘Najot kitobi” ilmiy qomusiy asarining musiqaga bag‘ishlangan qismi ‘‘Musiqa ilmida qisqartma”, “Donishnoma” asaridagi “Musiqa haqida” bo‘limini aytish mumkin. Afsuski, Ibn Sinoning bizgacha yetib kelmagan, lekin turli manbalarda zikr etib o‘tilgan asarlari ham bo‘lgan. “Musiqa sanatiga kirish”, “Qo‘shimcha kitob”, “Musiqa haqida risola” kabi musiqaga bag‘ishlangan asarlari hanuzgacha fanga ma’lum emas .

Ibn Sino musiqa borasidagi qarashlarining asosiy xususiyati hamda Farobiy talimotidan farqli tomoni shundaki, olim o‘z musiqa nazariyasini ko‘proq tovushlarning fizik xususiyatlariga qarata tuzishga intiladi. Bu talimotning kuchli tomoni shundaki, musiqani faqatgina tajribaning o‘ziga bog‘lab qo‘ymasdan uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga davat etadi.

Farobiy va Ibn Sino mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ulari ilmiga ham asos solishadi. Ular musiqiy asboblar tipiga batafsil tasnif berishadi hamda ularning tuzilishini tushuntirib o‘tishadi. Al-Farobiy va Ibn Sinoning musiqiy cholg‘ularni o‘rganishga doir ishlari natijasida musiqa fanidagi maxsus fan musiqiy cholg‘ushunoslik faniga asos solinadi.

Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkurlaridan yana biri Abu Yusuf ibn Ishoq Al-Kindiy bo‘lib, arab musiqasi va musiqashunosligi asaschisi hisoblanadi. Al-Kindiy boshqa fanlar bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida ham asarlar yaratadi. U Sharq musiqa nazariyasi bo‘yicha 9 ta asar

yozgan bo‘lib, musiqashunoslikda ishlash bilan bir qatorda musiqiy ohanglarni inson ruhiyatiga ta’sir etish masalalarini ham tadqiq etadi. Uning fikricha musiqa insonning ruhiy olami, fe’l-atvori va kayfiyatiga ta’sir etuvchi kuch deb hisoblaydi. Rivoyatlarning birida aytilishicha, Ishoq Al-Kindiy musiqa orqali bemorlarga ruhiy ta’sir etishni tajribada sinab ko‘rgan. U shol bo‘lib yotgan bir bolani musiqa orqali davolaganligi bola esa sog‘ayib ketganligi aytiladi .

IX-XI asrlarda Sharq har tomonlama yuksalganligiri ko‘rish mumkin. Bu davr allomalari va ularning izlanishlari butun dunyo sivilizatsiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yaratgan asarlar va betakror kashfiyotlar esa hozirgi kunda ham asosiy manba bo‘lib, kelgusi avlod uchun bitmas tuganmas meros hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Натан Маллаев Ўзбек адабиёти тарихи 1-китоб. 86-

2. Зокиржон Орипов X-XV асрлар Марказий Осиё мусиқа манбашунослиги..

3. Usmon Qoraboyev. G‘ayrat Soatov. O‘zbekiston madaniyati T. 2011-y..